

ANBAR OTIN IJODIDA NAVOIY AN'ANALARI**Abdulkhakimova Zulfiyaxon Jamshid qizi***IV Farg'ona akademik litseyi o'quvchisi*

Anbar Otin mumtoz adabiyotimizning ko'p asrlik an'analari zaminida qalam tebratar ekan, o'z asarlarining faqat mazmun jihatdangina ta'sirli bo'lishi uchun emas, ayni zamonda badiiy jozibadorligi uchun ham kurashadi. G'azalda mazmunni muhim deb qaragan shoira uni xilma-xil obrazlar, poetik usul va vositalar orqali ifodalashda o'ziga xos san'at ko'rsatadi. Uning g'azallarida kishining har xil kayfiyat va holatlarini ifodalovchi majozlar, tashbehtar, istioralar, mubolag'a, tazod va tadrijlar benihoyadir:

Ey do'st, jaholat ahlig'a oshno bo'la ko'rma,**To kelguncha baxt-u saodat shaydo bo'la ko'rma.****...Gar mug'bacha daf cholsa, ayo Anbari xushro'y,****To oshiq emas, ishqida bag'ring tila ko'rma**

singari baytlarida biz shoiraning o'z ko'ngliga murojaat qilganini ko'ramiz. Bu "xitob" usuli mumtoz she'riyatda lirik qahramonning ruhiy kayfiyatini ochish uchun qulaylik tug'diradi.

Anbar Otin she'riyatidagi ishq-muhabbat, vafo va sadoqat, insonga shavqat va muruvvat, erk va xurriyatni kuylash, xullas, umumbashariy ahamiyatga ega yuksak g'oyalarni ifodalash, mumtoz adabiyotimiz namoyondalari, ayniqsa, buyuk mutafakkir shoirimiz Alisher Navoiyning ijodiy ta'siri natijasida tobora rivojlangan edi. Shoira Navoiyning "Odami ersang demagil odami, onikim yo'q xalq g'amidan g'ami", misralarini umr bo'yi o'ziga shior qilib oldi. Uning "Shoir bo'lsang vaqti-vaqti birla mushoira qil" deb boshlangan g'azalida shunday misralar bor:

Agar ustodi adabni izlasang, Anbar Otin,**San Navoiy ta'limini doim mumolaa qil.**

Yana Navoiydan misol keltiramiz:

Chun kular yoni so'kulgan jismi zorimni ko'rub,**Yig'lagaymu yoni yemrulgan mazorimni ko'rub****...Ey Navoiy, dahr bo'stoniga moyil bo'lma ko'p,****G'am xazonig'a badal bo'lgan bahorimni ko'rub.**

Alisher Navoiyning mazkur g'azaliga nazira tarzida yozilgan shoiraning "Ko'rub" radifli g'azalida muallifning hasbi xoli – o'z ahvoliga ham yaqqol namoyon bo'ladi:

**Ey zamon, rahm aylag'il vaqti zavolimni ko'rub,
Yashnamay pajmurda bo'lg'on nav-niholimni ko'rub.**

**...Dudi ohim arshi a'log'a chiqar ko'rgilki, shayx,
Anbarim bo'ldi hazin to'sdek bu yelimni ko'rub.**

Yuqoridagi misralar g'oyaviy-badiiy jihatdan bir-biriga nihoyatda uyg'un, hatto ma'lum darajada tazmin namunasiga o'xshaydi. Navoiy lirik qahramon nomidan jarohatlardan jismim choki so'kilganini ko'rib kulkanlar yoni yemirilib ketgan mozorimni ko'rib yig'laydilar, kulgi bilan yig'ining yonma-yon kelishidan bahorim ham, xazonim ham farqsiz bo'lib qoladi, deydi. Anbar Otin ham Navoiy misralaridagi obrazlarni aynan qo'llash bilan birga xalq iboralaridan foydalanib : "Men shu darajada g'amzadamanki, chekkan oh-u nolalarim arshi a'logacha yetib boradi", deydi

Xullas, Navoiy g'azalidagi g'amgin ohanglar Anbar Otinga kuchli ta'sir ko'rsatib, uning o'ziga xos shaklda ifodalashga imkon ochgan. Bu esa shoiraning Navoiyni ulug' ustod deb bilganini, ijodiy jarayonda uning tajriba va usullari bahra olganligini ko'rsatadi.

Anbar Otin she'riyatining g'oyaviy va ma'rifiy imkoniyatlaridan samarali foydalanishga jiddiy intilgan so'z san'atkoridir. Shuning uchun uning ko'pgina g'azallarida, ular qanday mavzuda bo'lmasin, biz turli-tuman axloqiy, falsafiy, ta'limiy va didaktik ma'nolarga duch kelamiz.

Alisher Navoiyning "Lison-ut tayr" dostoniga shunday misralar bor:

**Onglakim, so'z o'zga, ma'ni o'zgadur,
Ma'ni ongmas shog'il ulkim so'zgadur.**

Ya'ni: ma'no-mohiyatini anglamaganlar uning tashqi shakli bo'lgan so'z bilan ovora bo'ladilar. Darhaqiqat, ijod namunalari ma'no javohirlari bilan to'la ummonga o'xshaydigan hazrat Navoiyning izchil g'oyibona shogirdi, otashin muhlisi bo'lgan Anbar Otin ulug' mutafakkirning ana shu da'vat va shioriga amal qiladi, o'z she'rlarining ma'no jihatdan mukammal, shakl jihatdan go'zal va betakror bo'lishiga intiladi. Shuning uchun ham shoira lirikasida mazmun va shakl ajralmas birlikni tashkil etib, uzviy ravishda chambarchas bog'lanib ketgan. Unda she'rxon sun'iylik yoki yasamalikni uchratmaydi. Chunki uning she'rlari haqiqatdan ham yurakning nozik torlarinidan taralgan samimiy va ohangdor taronalardan iboratdir:

**...Mayli bag‘rim ezilsa, tilim butun-ku holo,
Dilimdagi xazina tilim uchida tuyg‘u.
Daryo misoli bo‘lsa kishi dili aslida,
So‘zlarida jilo berur dilidagi har inju.
So‘zlarimga tushunsa, bo‘yi Anbarni hidlar,
Befahm har ablah uchun iboratur chun og‘u.**

Shoira she‘riyatni nozik tushunuvchi, bahra oluvchilar uchun har bir so‘zi inju, ammo faxm-u idrokdan yiroq bo‘lganlar uchun men qo‘llagan iboralar og‘uday tuyuladi demoqchi.

Anbar Otin murakkab tarixiy davr va sharoitda yashab, ijod qildi. Mumtoz adabiy an‘analarni muvaffaqiyatli davom ettirish bilan birga, o‘zi mansub bo‘lgan zamona muommolarini qalamga olish bilan lirikaning imkoniyatlarini yanada kengaytirdi, mavzular ko‘lamini boyitdi. Bu esa uning nomi mumtoz adabiyot tarixidan munosib o‘rin olishiga sabab bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shermuhammedov P. Tarixchi va ijodkor nigohi//Sharq yulduzi.- Toshkent.1977.-N3/-B.205
2. Anbar Otin. Risolayi falsafayi siyohon. Sharq.-Toshkent.1978
3. www.ziyo.com